

## O'ZBEK MA'RIFATPARVAR AYOLLARINING MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH G'OYALARI

Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna  
Sharof Rashidov Nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvar ayollarining ma'rifatli jamiyat barpo etish borasidagi go'yalari, harakatlari, qiyinchilik va kurashlari, amalga oshirgan ishlari, ma'rifatli jamiyatda ayolning o'rni xususidagi fikrlar o'rinn olgan.

**Kalit so'zlar:** ma'rifat, ona vatan, jadidchilik harakatlari, ozodlik, ilm, manaviyat, adolat, siyosat.

**Аннотация:** В этой статье представлены мысли узбекских женщин-просветителей о якобы совершенных ими действиях, трудностях и борьбе за построение просвещенного общества, о роли женщины в просвещенном обществе.

**Ключевые слова:** просвещение, Родина, джадидистские движения, свобода, наука, духовность, справедливость, политика.

**Annotation:** this article covers the ideas, actions, difficulties and struggles of Uzbek enlightened women about the creation of an enlightened society, the work they have done, the role of a woman in an enlightened society.

**Keywords:** enlightenment, motherland, jadidist movements, liberation, science, spirituality, justice, politics.

Ona yurtimiz, millatimiz ravnaqi, ilmu ma'rifati yo'lida jon bergan bobolarimiz va momolarimiz nomlarini takror-takror tilga olgan daqiqalarda ularning ezgu g'oyalari qalbimizda tirilgani sayin o'zimiz ham ana shu buyuk kuch — Ona Vatan sha'ni, qadri uchun ilm olishimiz, kurashishimiz, yashashimiz va ijod qilishimiz kerakligini yanada chuqurroq anglay boshlaymiz.

O'zbek jadid ayoli Maryam Sultonmurodovadan bolsheviklar nihoyatda hayiqar edi". Jadid bobolarimiz safida turib yurt va millat ravnaqi yo'lida kurashgan o'zbek xotin-qizlarining zamondoshlaridan ustun jihatlari, fazilatlari qaysi voqeliklarda ko'zga tashlanadi? Maryamxonning "aybi" nima edi?

— Ajdodlarimiz onalarga millat egasi sifatida qarashgan. Axir buyuk insonlarni ilm-ma'rifati yuksak onalar yetishtiradi. Millatimizda katta olma, shoira va faqiha ayollar ko'p bo'lgan. Jadid ayollar mavzusi esa alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Eng avvalo, jadid bobolarimiz o'sha zamon kishilari ongida xotin-qizlarga bo'lgan alohida hurmat va ehtirom tuyg'usini uyg'ota bilgan. Ular millat farzandlarini "qo'li to'qmoq, boshi

pahmoq” ezilgan ayollar tarbiyalashini istamagan. “Biz qizlarimizga o'g'il bolalardan kam e'tibor qaratmasligimiz kerakligini qayta-qayta ta'kidlashgan.

Cho'lponning 17 yoshli shogirdi Matluba Muhammad xonimning “Mudom Chorning qo'lida ko'p ezilgan millatim”, degan misralar bilan boshlanguvchi she'ri o'sha davrda sho'rolar mamlakatini larzaga solgan ekan. Bu she'r yevropa matbuotida qayta-qayta nashr etilgach, sho'rolar iste'dodli shoira tahsil olayotgan Moskvadagi O'zbek maorif institutini yopgan deyishadi...

— Darhaqiqat, bir shaxsiyatning isyonli ovozi butun bir mamlakatga zarba bergan. Uning “Kurtulush yo'linda” nomli she'rini yodga olish arziguqlikdir. Ushbu she'rnii Sattor Jabbor nemis tiliga tarjima qilgach, ushbu o'tli misralar mashhur bo'lib ketadi. “Sho'rolar qanchalik bosim qilmasin, adabiyotimiz Cho'lponlarni yetishtirishda davom etmoqda, millatning orzu-maqсадлари shu fidoyi qizning qalbidan otilib chiqmoqda”, deydi faxr bilan tarjimon. Matluba Muhammad Marg'ilonning mashhur jadid muallimi Nurmuhammad Dadamuhamedovning qizi. U o'z zamonasining iqtidorli yoshlaridan edi. Matluba 1926-yilgacha Qo'qon bilim yurtida tahsil oladi. 1927-yil o'qishini Toshkentdagi ayollar bilim yurtiga ko'chirib, so'ng opasi Mahbuba Dadamuhamedovaning izidan borib Moskvadagi O'zbek maorif institutiga o'qishga kirdi. U yerda mashhur shoir Cho'lpon, Botu, Shokir Sulaymonlardan she'riyat sirlarini o'rgandi. Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Abdulhay Tojievlar suhabatidan bahramand bo'ldi. Matluba, ayniqsa, o'zbek talabalarining ma'rifiy kechalarida Cho'lponning vatanparvarlik mavzusidagi otashin she'rlarini o'qib, o'zi ham shu mavzuda she'rlar yozib juda mashhur bo'lib ketgan. Uning bu shuhrati sho'ro mamlakati chegaralaridan chiqib, Yevropa matbuotigacha borib yetadi. Va bu “mashhurlik” tufayli Moskvada “Komsomolskaya pravda” gazetasida unga qarshi maxsus maqola chop etilgan va natijada u o'qishdan haydalgan. Ko'p o'tmay Matluba ariza yozib, o'ziga qo'yilgan ayblarning tuhmat ekanligini isbotlab, o'qishiga tiklanadi. Bunga bir tomondan O'zbekiston hukumatining aralashuvi, ikkinchi tomondan, Mathubaning Italiya elchixonasiga fuqarolik so'rab murojaat etishi ham sabab bo'lgan. Sovet hukumati O'zbek maorif institutini yopib muammoga yechim topgan edi go'yo. Mathubaxon esa Toshkentga qaytmasdan Moskvadagi musiqa texnikumiga kirib o'qishini davom ettirgan. 1938-yil 17 -yanvar kuni Toshkent tibbiyat institutining 3-bosqich talabasi Matluba Muhammad ham qamoqqa olinadi. 19 yanvar kuni ilk so'roqda u turmush o'rtog'ining davlat va xalq oldida hech qanday aybi yo'qligini bayon qildi. 1938-yil 21-fevralda ikkinchi so'roqda opasi Mahbuba va uning turmush o'rtog'i, Germaniyada tahsil olib qaytgan kimyogar olim Sattor Jabborning ham aybsizligini ta'kidlagan. Biroq qo'yilgan birorta ayblovning isbotlanmaganiga qaramay, 1938- yil 17 may kuni Toshkent viloyat sudi tomonidan Matluba Muhammedova 10 -yilga qamoqqa hukm etildi. U nohaq jazoni sovuq Sibirning Usolskiy lagerida o'tadi. 1940-yil 26 fevralda Matluba Muhammedovaning arizasi qayta ko'rilib, u oqlanishga erishdi.

Matluba Muhammad ko'p yillar xalq salomatligi yo'lida halol mehnat qilib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi. Bir paytlar Vatan ishqida, istiqlol orzusida otashin she'rlar bitgan Matluba Muhammedova O'zbekistonning mustaqillikka erishganini o'z ko'zlari bilan ko'rди. Jiyalarining xotirlashicha, millat hurligi, mamlakat mustaqilligi e'lon qilingan kunlarda cheksiz quvonch yoshlarini to'kkан ekan. Matluba Muhammedova 1998 yili Toshkent shahrida olamdan o'tgan. Xorijda o'qib kelgan qizlar nafaqat jadidlar falsafasiga, balki tashqi qiyofasiga ham ta'sir ko'rsatib, hatto yevropaliklarga o'xshab kiyina boshlashgan ekan. Ayniqsa, germaniyadan o'qishdan qaytgan, dunyoqarashida katta o'zgarishlar ro'y bergan yigit-qizlarning xatti-harakatlari barchaning diqqat-markazida bo'lgan. Shu o'rinda jadid ayollarimiz qisqa vaqt ichida amalga oshirib ulgurgan yangi loyihalar haqida ham aytib o'tsak arziydi.

— O'sha davrda qadimchilar va an'anaviy odatlarga yangilik kiritadiganlar o'rtasida tortishuv va muhokamalar ko'p bo'lgan. Tabiiyki, bu jarayonda qadimchilar ko'pchilikni tashkil qilgan. Kiyinish masalasidagi e'tirozlar, gazetaning bid'at ekani haqidagi targ'ibotlar, teatrni taqiqlash, turmush tarzidagi yangicha yashash imkonlarini rad etish, hatto sunnatda yo'q deb taomni qoshiq bilan tanovul qilishga ham qarshi fikrlar bildirishlar kun o'tgani sayin jiddiy bahsu munozaralarga sabab bo'lgani haqiqat...

Ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadrini ko'taradigan farzandlarni tarbiyalashdek vazifa yuklangan bo'lib, ma'rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, chunki aynan u bolalarni tarbiyalab ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantirishiga ko`proq hissa qo`shadi.

Ma'rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli- ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazishdir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloq - odob egasi bo'lishlari uchun ziyorilar orasida jiddiy harakat avj oladi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi ya'ni yosh avlod tarbiyasi asosan onalar qo'lida ekani hammaga ayon bo'lib qoladi. Shu bois ilg'or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik qilish, balki axloqiy - tarbiyaviy risolalar yozish yo'li bilan ham bo'lajak ziyorli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo'shadilar. Shu jihatdan Olimat ul - Banotning Sankt - Peterburgda 1898-va 1899-yillarda ikki marta nashr etilgan «Muosharat odobi» «(Turmush odobi)» asari o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan. «Agar hotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak - shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh Taolaning amriga muvofiq hayot kechiradi», – deydi risola muallifi.

Turkiston ma'rifatparvarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshod Barnoning shogirdi Anbar otindir. Uning axloqiy qarashlari lirik - falsafiy she'rlarida va «Qarolar falsafasi» (1898) risolasida o'z aksini topgan. Risolaning ikkinchi faslida Anbar otin o'sha davrdagi ayollar ahvolini, ularning bevosita va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar natijasida o'z iqtidori, istedodi, latofatini namoyon qila olmasliklarini aytib o'tadi. Ular, hatto, ko'cha - ko'y larga zarurat yuzasidan, masalan, qarindosh - urug'larini ko'rgani borish uchun chiqqanlarida, eski paranjiga o'ranib, kampirlar kabi bukchayib yuradilar. Chunki agar qaddi qomatini adl tutib, yoki ochilib - sochilib yursalar, unlarga erkaklar tajovuz qilishlari mumkin. Bunday axloqsizlikning ildizi ijtimoiyadolatsizlikka borib taqaladi: kambag'alligi tufayli uylanish, oila boshlig'i bo'lish huquqidan mahrum bo'lган bunday erkaklar shayton vasvasasiga tushib, shahvoniynafslarini tiyolmay qoladilar. Lekin taraqqiyparvar shoira kelajakka katta ishonch bilan qaraydi: bu ijtimoiy axloqiy illatlar albatta o'tib ketadi, hurlik, tenglik zamonlari keladi. Mana bu haqda Anbar otinning o'zi nima deydi: «Bir zamoni bo'lurki, kamina mushtipar kabi olijanob orzu qilg'ondan ziyoda bo'lur... alarni mazlumalar avlodixatarsiz tavallud o'lib, yaxshi parvarish topub, hushro'y va hushho'y, botamiz va vatando'st, serg'ayratu mehmondo'st bo'lub, kamolg'a etar. Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo'lur... Ul zamonda odam axloqi ul darajag'a eturki, mijoz gala hotunlik rusumini tark etar va har er bitta hotin ila farog'atvor kun kechirgay... Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig'a tuyassar bulub, urfon tahtida qaror topib, ellar va ulug'lar safig'a doxil bo'lurlar, alar hayrat va mehnatda erlarg'a hamfo va yovar bo'lub, obro' topib, hurmat va ikromg'a sazovor bo'lurlar.» Anbar otin adolatli podsho muammosiga a'lohida to'xtalib, o'sha davr uchun nihoyatda original, kutilmagan va hozirgi zamonda ham ahamiyatini yo'qotmagan fikrlarni bildiradi. U, dastavval «o'rus keldi!» deganda hamma ma'rifat ahli, endi xalqning, ijtimoiy - iqtisodiy va ma'naviy hayoti yaxshi tomonga o'zgaradi deb kutganini, lekin bu ishonch oqlanmagangini, aksincha, «o'rus podshoh musulmonlarga zarrachayinki ha'lovat bermaganini» aytadi. Ba'zi bir ruslar hukmronligini oqlaganlarga qarshi shunday deydi: «Agar o'rus shohi darhaqiqat odil bo'lsa, va aning hohishi qaram xalqlar ham o'rus misoli ozod bo'lsun va barcha ha'loyiq o'rus birla barobar bo'lub ro'zg'or kechirsun desa, amorat va hukmronliq qonunini din qonunlaridan mustasno keltursin.» Boshqa bir o'rinda faylasuf - shoira: «Davlat ishini dini islomdin yiroq tuting...», degan fikrni bildiradi.

Mohlaroyim Nodira XIX asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysidir. Shoira 1792 yili Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tavallud topdi. Uning onasi Oyshabegim ma'rifatlaiyol bo'lган. O'zining oilaviy silsilasiga ko'ra Bobur nasliga mansub bo'lib, shoiraning ota-onasi ham davrning e'tiborli kishilari edilar. Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo xislatlarini ma'rifat, ya'ni xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharafli xislatlarni mukammal o'z ruhiga singdirib

olishi va uni sobitqadamlik bilan ko‘ngil ganjinasida asramog‘ini obrazli bir tarzda tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo‘lar ekan, u riyo yo‘liga kirib ketadi. Nodira inson qalbida yuksak axloq-odob cho‘g‘i bo‘lmas zkan, u ishq-muhabbatni qadrlay olmasligini ta’kidlaydi va “beadab kirma muhabbat dashtig‘a”, deydi. Nodira davlat va mamlakat ishlarini tadbir va adolat bilan idora qilishda homiylik namunalarini ko‘rsatarkan, bu yillarda mamlakatda nisbiy osoyishtalik saqlandi. Qo‘shni o‘lkalar va ularning hukmdorlari bilan savdo-sotiq va boshqa sohalarda kelishuvlar amalga oshirildi. Nodiraning mamlakatdagi qurilishlar sohasidagi olib borgan ishlari, madaniyat va adabiyot borasida ko‘rsatgan tashabbuskorliklari shoira devonining debochasida ta’kidlab o‘tilgan.

Mahzuna (taxallusi; asl ism-sharifi Mehribon mulla Boshmon qizi) — o‘zbek shoirasi, Qo‘qonning Qatag‘on daha Mulla Boshmon mahallasidan bo‘lib, otasi mahalla masjidi imomi Mulla Boshmon Oxunddir. Ota-onasi qo‘lida savod chiqargan, arab, fors tillarini mukammal o‘rgangan. Fazliy: «Garchi ul zaifa bo‘lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir»

### Adabiyotlar

1. Anbar Otin, she’rlar, risola. –T.: Badiiy adabiyot, san’at nashri. 1968.
2. Doniyorov.S. Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.// “Yangi O’zbekiston”, 2021 yil 17 avgust, 165 (421)-son.
3. Karimov D. Ta’limdagi yangilanish va sifat // “Xalq so’zi”, 2022.
4. <https://bilimlar.uz/nodira-1792-1842/>
5. Turkiston ma’rifatchi jadidlarining axloqiy qarashlari.aim.uz.
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/mahzuna-1811>